




Bandixon tumanida «Sayxunobod tajribasi»ni joriy etish ishlari bilan tanishildi



Surxondaryo viloyati hokimi Ulugʻbek Qosimov Bandixon tumanida boʻlib, qishloq xoʻjaligi sohasi, xususan, gʻoʻza va gʻalla parvarishi ishlari bilan tanishdi. Bu boradagi ishlar koʻzdan kechirilib, masʼullarning axborotlari tinglandi. Mavjud muammolarni hal etish boʻyicha mutasaddilarga aniq muddatlar bilan vazifalar belgilab berildi.



Shundan soʻng, viloyat rahbari tumanning Birdamlik mahallasida “Sayxunobod tajribasi” asosida amalga oshirilayotgan ishlar hamda mahalla “yettiligi” faoliyati bilan tanishdi. Xonadonlarda boʻlinib, tomorqadan samarali foydalanish, koʻchalarni obodonlashtirish holati koʻzdan kechirildi. Uyma-uy yurish davomida aholi bilan muloqot qilinib, ularning muammolari tinglandi. Murojaatlarni hal etish boʻyicha tuman rahbarlari hamda mahalla “yettiligi”ga topshiriqlar berildi.



Shuningdek, masʼullarga bir hafta muddatda mahallada “Sayxunobod tajribasi” asosidagi ishlarni namunali tashkil etish, ishsizlarning bandligini taʼminlash, ichki koʻchalarni asfaltga tayyorlash ishlarini yakunlash hamda viloyat rahbariga taqdimot qilish topshirildi.



Keyingi hafta berilgan topshiriqlar ijrosi ko'zdan kechirilishi belgilandi.